

ABDULHAMID CHO‘LPON MEROSINING HOZIRGI KUNDAGI
AHAMIYATI

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik oqimining eng yosh namoyandasi hisoblangan Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning ijodiy faoliyati, adabiyotshunos olim sifatida tutgan o‘rni, yurt mustaqilligi yo‘lidagi sa‘y-harakatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, she‘riyat, inqilobiy, qissa, jaholat, erkinlik, ma‘naviyat, ma‘rifat.

Ma‘rifatparvar adib Abdulhamid Cho‘lpon zulm davrida yashab ijod etgan buyuk shaxslardan biri edi. Shoir she‘riyatida yurtga muhabbat va sadoqat, mustamlaka zulmidan nafratlanish, xalqning milliy ongini yuksaltirish kabi g‘oyalar yuksak mahorat bilan ifodalangan. Shu ma‘noda, barkamol avlod tarbiyasida adib ijodi alohida o‘rin tutadi. Cho‘lpon ijodida ma‘rifatparvarlik g‘oyasi alohida o‘rin tutadi. Turkistonning buyuk shoiri, Andijonda jadidchilikka asos slogan Cho‘lpon o‘z yurtida “Turon kutubxonasi”ni tashkil qilgan. Cho‘lponning ochiq ifodalangan, go‘zal turkcha, toza uslub bilan bitilgan da‘vatkor, isyonkor she‘rlarida Rossiya mustamlakachiligini qoralovchi, Turkiston istiqlolini madh etuvchi she‘rlari o‘lka aholisining milliy his-tuyg‘usini, milliy o‘zligini uyg‘otgan [1; 267].

Adabiyotshunoslar Cho‘lponning ilk ijodi uning yoshi, saviyasiga monanad ruhda bo‘lgani, badiiy jihatdan u qadar mukammallik kasb etmaganligini aytadilar. Shunday bo‘lsa-da, ushbu ijod mahsullari umidli shoir va adibning kelajakda yaratajak asarlari uchunxamirturush, ijodiy tajriba vazifasini o‘tashi barobarida, uning badiiy-estetik ideallarini o‘zida to‘la aks ettirgani, ijodkorning butun dardini, yurak nolalarini o‘quvchilar qalbiga tog‘ridan-to‘g‘ri yuqtira olish xususiyatlarini mujassam qilganligi tomonidan g‘oyat qadrlı ekanligini ta‘kidlash lozim.

Cho‘lpon o‘z asarlarini “millat intibohi mutaraqqiysiga” safarbar etarkan, ularni davr chig‘iriqlaridan, dushman ko‘zidan salomat saqlash maqsadida goh ochik, goh ramzlar vositasida so‘zlashga majbur bo‘ladi. O‘z "dardi"ni boshqalarga, ayniqsa, “yosh bo‘g‘un” shoirlarga yuqtirishga harakat qiladi va bunga erishadi ham. Bunga, masalan, 1936-yilda nashr etilgan “Uyg‘un she‘rlari” nomli mo‘jaz she‘riy to‘plamga Olim Sharafuddinov Ayn tomonidan yozilgan uzundan-uzoq so‘zboshida aytilgan mana bu gaplar dalil bo‘la oladi: “...Milliy burjuaziyaning yiqiluchilik kayfiyatlarini ifoda qiluchi Cho‘lpon she‘rlarini o‘qush, san‘atda unga ergashuv, uning badiiy xususiyatlarini o‘zlashtirish, Uyg‘un asarlariga begona ta’sirlarning izini soldilar. Uyg‘un she‘rlariga meshchan so‘zlari, ritmda bir turlilik, mayin qayg‘u, “betaraf” tasvirchilik, abstraktlik, traditsion she‘r tuzilishi - Cho‘lpondan o‘tkandir...” [2; 9].

Yosh o‘zbek shoirlari orasida o‘zining shoirlilik kuchini tez vaqt ichida ochiq tanita olgan eng birinchi shoir Cho‘lpondir. Shu qizg‘in ijodi davrida bu shoir endi o‘zi to‘g‘risida salbiy yo ijobiy, qat‘iy ham ochiq fikrlar bayon qilishga yetarlik sarmoyalar bergan. Cho‘lponning bu davrdagi she‘rlari o‘zini anglab o‘qiguvchilarga uni “Uyg‘onish” bo‘ylaridan, Turkiston tog‘lari orasidan chiqqan bir yonartog‘ ravishda tanitgan. Yoki biz uni o‘zining og‘zidan kinoya yo‘lli;

*Zo‘r tengizning to‘lqunidir, bag‘rida
Yuz yillarning qonli, qo‘rqinch izi bor.
Yumshoq suvdan biriktirgan og‘zida
Shafqat bilmas isyonlarning so‘zi bor!*

deb sifatlangan “o‘tli suv”ning o‘zi deb taniy olamiz.

Cho‘lpon bir necha “inqilobiy”namo she‘rlar yozib, sanoqsiz aksilinqilobiy narsalarni ko‘chama-ko‘cha tarqatib yurar ekan, ochiq va yashirin suratda yosh miyalarni zaharlab turar ekan, albatta, qizil madaniyatchilar “keng yurakli” bo‘lib turolmaydilar.

XX asr boshlarida shakllangan o‘zbek jadidchilik harakati uchun adabiyot, matbuot, teatr kabilar jadid g‘oyalarni ommalashtirishning asosiy sohalaridan edi. Ayniqsa, matbuot nashrlari jadid ziyolilarining ilg‘or fikrlari, davr yangiliklariga bo‘lgan munosabatini yoritishda qulay vosita hisoblangan. O‘zbek publisistikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, taraqqiy etishida ham jadidlarning o‘rni katta bo‘lgan. Xususan, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon jadid matbuotining paydo bo‘lishi va rivojlanishida o‘z maqolalari bilan katta hissa qo‘shgan publicist ham edi. Cho‘lponning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, adabiy, ommabop maqolalari o‘sha davr adabiy-madaniy hayotini aks ettirgan, bu esa o‘zbek publisistikasining tadrijini o‘rganishda bugungi kunda ham muhim hisoblanadi [3; 4].

Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, xalq ozodlik harakatlari, chorizmning qulashi, Sovet inqilobi va yangi hukumatning shakllanishi ham adabiyotga ta'sir ko‘rsatdi. Shoirlar va yozuvchilar, ziyolilar ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni ifodalash, hayotdagi tez o‘zgarishlarni tasvirlash, atrof-muhitga ma‘lum bir munosabatni ifodalash uchun yangi iboraga, imidj shakliga muhtoj edi. Cho‘lponning “Ikki bosh va bir tana” she‘ri ham erkin shaklda yozilgan edi. Jadid shoirlar asarlarida erkin vaznning mashhurligining asosiy sabablaridan biri shundaki, bu turdagi she‘riyatda ma‘lum bir so‘zning og‘irligini, ya‘ni g‘oyani berish mumkin edi. Ushbu turdagi she‘rlarda so‘zlarning bosqichma-bosqich joylashishi, so‘zning satrga joylashishi she‘rning ohang va o‘ziga xos vizualligi nuqtai nazaridan asosiy xususiyatlar edi. Erkin she‘riyatning xususiyatlari -

inqilobiy, “jasoratli ohang”, “siyosiy keskinlik va poklik”, jamoatchilik, fuqarolik; katta auditoriya, baland podium, katta maydon uchun mo‘ljallangan [4;66].

Abdulhamid matbuotdagi chiqishlarini o‘n yetti yoshida boshlagan. Uning matbuotdagi ishtiroki she‘r va ocherklardan iborat edi. Ilk she‘ri 1914-yili “Sadoyi Turkiston” gazetasida “Turkistonlik qardoshlarimizga” sarlavhasi bilan bosilgan.

Muso Toshmuhammadning o‘g‘li Alibek Cho‘lpon she‘riyati va ijodiga shunday baho beradi: “Biz ham Cho‘lponni tashlab ketolmaymiz. Cho‘lpon yangi adabiyot uchun yangi narsalarni yaratdi. Muvashshoh adabiyoti o‘rniga shu kunning zavqiga mos, yoqimli, go‘zal she‘rlar yaratdi. Uning shirin tilini, shirin uslubini, texnikasini bugungi yosh avlod yaxshi ko‘radi. Undan ko‘plab go‘zalliklarni oladi. Cho‘lpon mafkurasini emas, badiiy namunalarini o‘rgandi, taslim bo‘lmaydi” [5; 154].

Cho‘lpon faqat shu she‘r bilan cheklanib qolmay, “Jaholat qurboni” nomli ilk qissasini ham shu gazetada e‘lon qildi. Bundan tashqari, Cho‘lpon o‘zbek adabiyotida “Adabiyot nadur?” U o‘z maqolasi bilan o‘t kabi otilib chiqdi va eng yosh va birinchi o‘zbek nazariyotchisi, adabiyotshunos olimi sifatida maydonga chiqdi. “Fitrat va jadidchilik” mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yozgan professor Hamidulla Boltaboev Fitrat hayoti va ijodini tadqiq etgan olim bo‘lsa ham, ba‘zi adabiyotshunoslarning Fitratni birinchi o‘zbek nazariyotchisi, Cho‘lponni e‘tirof etgan degan fikrlariga qarshi chiqdi. Eng qizig‘i, Cho‘lpon bu maqolani yozganda o‘n yetti yoshli o‘smir edi. Bu asarlar “Abdulhamid Sulaymon” va “Abdulhamid Sulaymoniy” imzolari bilan nashr etilgan. Bular ham uning taxalluslari emas, keyinchalik u “Qalandar”, “Andijonlik”, “Mirzaqalandar”, “Cho‘lpon” taxalluslari bilan qatnashadi. Cho‘lpon tarjimada ham o‘zini sinab ko‘rdi. Shekspirning “Gamlet”, Karlo Godining “Malikay Turondot” asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. 1935-1937 yillarda Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanini yozdi. Bu ish “O‘tkan kunlar” darajasidagi ish sifatida baholangan. Bu asar o‘zbek adabiyotidagi ilk roman – dilogiya bo‘lib, ikki kitobdan iborat. “Kecha” asarining birinchi qismi 1933-1934 yillarda Moskvada yozilgan. Birinchi boblari 1935 yilda Toshkentda nashr etilgan. Asar 1936-yilda to‘liq nashr etilgan. Asardagi voqealar erta bahorda boshlanib, qishning chirog‘ida tugaydi, shuning uchun Cho‘lpon o‘z romaniga epigraf sifatida “Hamal keldi – amal keldi” maqolini yozadi. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1937-yil kuzida qamoqqa tashlangan va 1938-yil 4-oktabrda otib otilgan.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon yurt taqdiriga, yoshlar kelajagiga befarq qaray olmadi, mavjud jaholatga qarshi kurashdi. U kelajak avlodga yaxshi nigoh bilan qaradi, katta orzu va maqsadlarni ko‘rdi. O‘z ta‘biri bilan aytganda, eng yorqin

yulduzda Vatan ozodligini, yurt tinchligini so‘radi. U inson hayotida qila oladigan barcha yaxshiliklarni qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Sodiqov, R. Shamsutdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. - T., “Sharq”, 2000.
2. Uyg‘un she‘rlari. – T., “O‘zdavnashr”, 1936.
3. D.Quronov. Cho‘lpon ijodi tanqid ko‘zgusida. – T., “Muharrir”, 2022.
4. I.Madg‘oziyev. Cho‘lpon (tadqiqot va materiallar). – T., “Muharrir”, 2022.
5. B.Karimov. Jadidlar; Abdulhamid Cho‘lpon. – T., “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022.